



O'ZBEKISTON OPERA SAN'ATIDAGI BIRINCHI XAJVIY OPERA SULAYMON YUDAKOVNING "MAYSARANING ISHI" OPERASINING YARALISHI

Ibrohimov Azizbek Ismonjon o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7663018>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston opera san'atidagi birinchi hajviy operasini birinchilardan bo'lib yaratgan kampazitor Sulaymon Yudakov hayoti va ijodi, U yaratgan birinchi opera "Maysaraning ishi" operasining yaralishi haqida yozma manbalar asosida tahlil qilingan.


Kalit so'zlar: opera, ijod, kampazitor, ariya, vokal, sinkopa, orkestr, xonanda, intonatsiya.

O'zbekistonda operaga bo'lgan e'tibor tobora kuchaymoqda. O'zbek opera san'atiga katta hissa qo'shgan kampazitor Sulaymon Yudakov. O'zbekiston xalq artisti, kampazitor Sulaymon Yudakov Aleksandrovich XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin va teran iz qoldirdi. Bu nodir iste'dod sohibi, atoqli kompazitor butun hayoti va ijodiy faoliyatini o'zbek musiqa san'atini rivojlantirishga bag'ishladi. U turli janrlarda inson qalbini to'lqinlantiradigan, beixtiyor o'ziga tortadigan, ajoyib shirador, quvnoq, quyosh kabi charaqlaydigan, jozibali orginal qo'shiq va romanslar, simfonik va vokal-simfonik, opera va balet, turli cholg'u va kino musiqasi bilan dong chiqardi. Uning shuhrati xorijiy mamlakatlarga ham yoyildi. Sulaymon Yudakov Aleksandrovich Qo'qon shahrida kambag'al kosib oilasida 1916-yilning 14-aprelida tavallud topdi. O'zining bolalik chog'larini eslab, shunday hikoya qilgan edi. Onamga yordam berish uchun 7 yoshimdan boshlab Qo'qonning markaziy ko'chasida poyafzal tozalovchi bo'lib ishlar edim. Men chaqqonlik bilan ikki cho'tkani oyoq qo'yadigan tumbochkaga urib, turli usul sadolarni jozibali chiqarishimga odamlar to'planib tomosha ham qilishar edi. Ishim yurushib, pul topadigan bo'ldim. Bir kuni qomati kelishgan, ovro'pcha kiyingan odam kelib o'tirib, etigini tozalattirdi va meni gapga soldi. Oilaviy ahvolimni va maktabga endigina borganimni bilib, meni 1928 yili yetim bolalar uyiga joylashtirdi. Menga otalik qilgan odamning ismi sharifini surishtirsam, Hamza Hakimzoda Niyoziy ekan. Yetim bolalar uyida madaniy-ma'rifiy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Hayoti shu tarzda davom ettirdi. O'qidi dunyoni tanidi, musiqa olamining mo'jizakor sirlarini o'rgandi, kampazitor bo'lib shakllandi. Sulaymon Yudakovning mustaqil ijodiy faoliyati ikkinchi jahon urishi yillarida boshlandi. U 1941-1945 yillarda o'zbek o'g'loni, yurt qahromoni Qo'chqor Turdiyevga bag'ishlab "Oldinga bosing o'rtoqlar" va "Do'stlar" (A. Lohutiy so'zlari); "Jonga -jon, qonga -qon" (T.Fattoh so'zi) kabi vatanparvar





ommaviy qo'shiqlar; "Habibiy tu manam" (H.Yusufiy so'zi) romans; 1942-yil "Farzand" (S.Ismoilzoda pyesasi) musiqali drama torli, kvartet uchun 3 ta pyesa va syuita va simfonik orkestor uchun "Syuita" asarlarini yaratdi. Ijod bilan birga Sulaymon Yudakov 1941-42-yillarida Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. 1943-44 yillarda Tojikiston filarmoniyasida badiiy rahbar lavozimida ishladi. Tojik shoirlarining so'zlariga bir qator qo'shiq va romanslar yaratdi. 1945-yili Tojikiston Davlat madhiyasi yozish uychun ko'rikdanlov e'lon qildi. Sulaymon Yudakov mahoratining badiiy jihatdan yetilib borishi muhim davri 50-80- yillarga to'g'ri keladi. Bu davr uning uchun yangi sinovlar va ijodiy yutuqlar davri bo'ldi. Qat'iy intizomga ega bo'lgan kompazitor, shu vaqt orasida o'z ustida ishlab, professional kompazitorlik yozish texnikasini mukammal ravishda o'zlashtiribgina qolmay, ajoyib badiiy yuksak musiqiy asarlar yaratishga muvassar bo'ldi. Sulaymon Yudakov yuqorida keltirilgan fikrlar bilan bir qatorda eng katta shuhrat keltirgan asari "Maysaraning ishi" nomli birinchi o'zbek komik operasi bo'ldi. 1958-yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat katta akademik opera va balet tetrida sahna yuzini ko'rgan mazkur opera teatrining asosiy repurtuarlaridan biri bo'lib hajviy operasi paydo bo'ldi. Hamzaning shu nomli kamediyasi asosida S.abdulla va M.Muhamedovlar liberottosini tayyorlashgan. Bu opera 1959-yili Moskvada o'tgan o'zbekiston adabiyot va san'ati 10-kunligida, Katta teatrida saxna yuzini ko'rgan. "Maysaraning ishi" operasi musiqa jamoatchiligi orasida juda katta shov-shuvga aylanib ketti. Moskva davlat "Romen" Lo'lilarssigan teatri rus tilida operani tomoshabinlarga havola etdi va uzoq yillar davomida teatr repurtuarida saqlanib keldi. 1960-yillarda mazkur opera Boshqirg'iston va Qirg'iston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston , Samarqand opera va balet tetrlarida ham sahna yuzini ko'rdi va katta muvaffaqiyat qozondi. 1974-yili esa Polshaning Lodz shahri opera va balet teatrida ham tomoshabinlar qizg'in kutib oldilar. Operaning birinchi ijrochilari: Halima Nosirova , Saodat Qobulova, Karim Zokirov , Sattor Yarashev, Jamol Nizomxo'jayev, Husan Ismoil, Mixail Davidovlarning ijrochilik ashulalarida yangilik bo'ldi. Ularning ijrosida komplekt grammafon plastinkalari million nusxada chop etildi. Shuni aytish joizki butun dunyoda yaratilgan eng mashhur operalar to'g'risida tanlangan 100 nomli kitobda Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" operasi ham tilga olingan. Mazkur opera birgina kompazitorga emas, butun O'zbekistonning zamonaviy musiqiy madaniyatiga ham shuhrat keltirdi. Sulaymon Yudakov zamonaviy o'zbek professional musiqa tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Uning buyuk xizmatlari ordenlar, bir necha medallar bilan, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan





san'at arbobi" va "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvonlar bilan taqdirlangan. Sulaymon Yudakov Davlat va Respublika davlat mukofotlarining sovrindori hisoblanadi.

"Maysaraning ishi" operasi

Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatr jamoasi kompazitor Sulaymon Yudakov shoir dramaturg Sobir Abdulla va M.Muhammedovlar hamkorligida "Maysaraning ishi" nomli hajviy operani 1959-yilning 6-yanvarida tomoshabinlarga havola qildi. Opera premyerasi juda katta muvaffaqiyatlar bilan o'tdi. Respublikamizni madaniy-ma'rifiy hayotida ulkan voqeaga aylandi. Operaning sahnalashtirilishida ishtirokchilar: dirijyor Fazliddin Shamsuddinov, baletmeyster Mukamma Turg'unboyevaga, asosiy rollarni ijro etuvchilar: Maysara – Halima Nosirovaga, Oyxon – Saodat Qobulova, Cho'pon Ali – Sattor Yarashevga, Mulla do'st – Karim Zokirovga, qozi – Xusan Ismoilovga, Hoji darg'a – Jamol Nizom Xo'jayevga, Hidoyat – Mixail Davidovlardan iborat. Mazkur opera bir necha avlodlar ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. "Maysaraning ishi" operasining musiqiy tili yorqin milliy ohangdorligi, jo'shqin – jozibadorligi va musiqiy dramaturgiyasining badiiy baquvvatligi bilan alohida ajralib turadi. Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" birinchi hajviy operasi, jahonga mashhur bo'lgan hajviy operalarni qatoridan munosib o'rin oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mazkur operada ham opera "buffa"dagi kabi barcha tipik xususiyatlari to'la to'kisdir. Ya'ani ohangdor ariyalar, vokal – ansambllar, ommaviy, xorlar, ohangdor va "secco" (tez harakatda so'zlash) rechitativlar orkester sadolari bilan hamohang birlikda jonli va ildam sur'atda sahnada sodir bo'layotgan jiddiy va hajviy vaziyatlar, mukammal ravishda tasvirlanadi. "Maysaraning ishi" operasi avval kirish cholg'u musiqa, keyin muqaddima bilan boshlanadi. Simfonik orkestrga kiritilgan o'zbek xalq sozlaridan: nog'ora, doira, rubob, karnay, tarambon va valtornalarda emitatsiya qilishlari tufayli muqaddima ijobiy obrazlardan: maysara, Oyxon, Cho'pon Ali, Mulla Do'st, salbiy xarakterlovchi "leymativ"lar operani rivojlanish jarayonida muhim ro'l o'ynaydi. Muqaddimaga kiritilgan "leymotiv"lar jaranglash jarayonida har bir persanajni qotib qolgan haykal siymosi namoyon bo'ladi, (sahnada aktyor oddiy ovoz bilan) ularning qiyofalarini bir persanajning xarakteriga yurish – turishlariga, xatti- harakatlariga xos leymotivlar orkestr sadosida jaranglashi tufayli tomoshabin – tinglovchilar ularning qiyofalari bilan oldindan tanishadilar. Aytish joizki, operaning rivojlanish jarayonida jiddiy lavhalar va ayniqsa hajviy epizotlar mavjud, yengil, hushchaqchaq musiqalar va






hiyla – nayranglar, oddiy va juda tez soʻzlash rechitativ – dialoglar bilan ham mavjud.[2]

Operaning bosh qahramoni zakovatli, irodasi kuchli Maysaraning musiqiy obrazini tasvirlashda Sulaymon Yudakov atoqli shoir dramaturg va bastakor Hamzaning “Hoy ishchilar”, mashhurnoʻshigʻini “leymativ” sifatida operaga kiritgan. Albatta, maysarani inqilobchi rahbar qilib koʻrsatishga emas, balki adolat uchun, inson huquqini himoya qiluvchi inson sifatida gavdalantiradi. Umuman Maysara obrazi, tasvirlashda uni ikki sevishgan yoshlarning toʻylarini oʻtkazib ularni qovushtirish niyatidagi amaliy harakatlari va toʻyga toʻsqinlik qilayotgan kimsalarga qarshi kurashda ruhiy xor sahnalarida insoniy fazilatini turli qirrali toʻla toʻkis ochilib boradi. Opera uch parda ikki koʻrinishdan iborat. Operaning birinchi pardasi Maysaraning kichkina, koʻrimsiz hovlisida oʻtadi. Goʻzal qiz oyxon, oʻzi yakka uy yumushlarini bajarish jarayonida “Ishqida yondim” nomli maʼyusli lirik ariyasida Choʻpon Aliga boʻlgan ehtirosli muhabbatini izhor etadi. Mazkur ariya oʻzbek xalq ashula shaklida, do minorda yozilgan. U oddiy garmonik akkordlar, joʻr boʻlgan orkestrni ravshanli faktura, sinkopalar bilan boyitilganligi tufayli Oyxonning musiqiy obrazi yorqin ohangdor milliy ruhi bilan namoyon boʻladi. Oyxonning ariyasi tugashi bilan, ishdan qaytayotgan Choʻpon Ali uzoqdan shodu xurramlik bilan, quvnoq, jozibali ariya ijro etib uyga keladi. Oyxon va Choʻpon Ali bir – birlari bilan hazillashadilar, Choʻpon Ali jiddiy soʻzlashish niyatida “Kel soʻzlashaylik” nomli ariyada izhor etadi. Mazkur ariya joʻrligida qisqa kirish musiqa bilan boshlanadi. Orkestrning yorqin fakturasi, oddiy akkordlar bilan boyitilgan ariyada Choʻpon Ali sevgilisi Oyxonni butun diqqat eʼtiborini oʻziga tortadi. Ikki sevishganlar bir – birlarini quvlab, goh hovlida, goh chorbogʻ tomon chopishib ketayotganlari paytida, favqulodda simfonik orkestr sadosida vahimali tremolo akkordlar bilab birgalikda pasayuvchi xrammatik oktava tovushlarni siljisida dahshatli Qozini jangovor harakati Hoji Dargʻani “leymotiv”lari namoyon boʻladi. Qozi va Xoji Dargʻa jin koʻchadan oʻtayotganlarida, Maysarani hovlisidan shoʻx – oʻynoqi ovoz va qoʻshiq eshitiladi va Choʻpon Ali bir – birlarini quvlab, ikkinchi duetlarida ham davom etib yana hovliga qaytib, quvlab oʻynayotgan paytda Qozi va Hoji Dargʻa ularga zang solib, Oyxonning yuzini va qomatini qiladilar. Oyxonga ishqi tushgan Qozi (murojat bilan) Hoji Dargʻaga “Maysara bizni buzuvchilikda ayblagan edi. Oʻzi ikki yoshni uyda birga saqlashi shariyatga toʻgʻrimi deydi. Hoji Dargʻa “Mutlaqo notoʻgʻri” endi Maysara oʻzi tumshugʻidan ilindi. Uni hibsga qamayman deb javob beradi. Ular ketadilar. Ana shu birinchi pardada sodir boʻlgan voqeadan boshlab, operada qarama – qarshi (kanflikt) toʻqnashuv





boshlanadi. Bozordan horib kelgan Maysara trio vokal – ansamblda Oyxon va Cho’pon Ali bilan muloqotda bo’ladi. Muloqot davomida Maysara bozordan olgan sarp – tugunni Oyxonga berib, uy yumushlarini bajaraver deb jo’natadi va “Amma Qozidan pulni undirdingizmi, Cho’pon alining savoliga javoban “qozi yana turli bahona qilib pulni bermaydi, yer yutgur deydi. Cho’pon ali endi Qozini o’ldiraman” deydi. Maysara esa yo’q, uni o’ldirsang qamoqda chirib ketasan. Men boshqa reja tuzub qo’ydim, Kunning Yarmisi yoruq ikkinchi yarimisi va trio “mi bemol” major tonalligida yakunlanadi. Mazkur trio ularning “fa major”da yozilgan trio bilan uzviy bog’lanib ketadi. Maysaraning eshigi, oldida, yurish – turishlari, xatti – harakatlari qiz bolaga o’xshagan Qozini o’g’li, qonunshunos – amaldor Hidoyat raqssimon qo’shiq aytib, Oyxonga bo’lgan ishq – muhabbatini baralla izhor etadi va eshikni taqillatadi. Maysara eshikni ochin Hidoyatga “keeling azizim” deb kutib oladi. Ularning rechitativ dialoglari va duetlari boshlanadi. Operaning dramaturgi rivojlanish jarayonida mazkur vasiqani va 20 oltinni Qozidan undirish muammosi muhim ro’l o’ynaydi. Hidoyat “bularni undirsam menga nima berasiz, Maysara “Palov tayyorlayman”. Hidoyat “Palov bilan ish bitmaydi, yuragim baxt tilamoqda” deydi. Maysara “Yuragingiz nimani tilayapti” desa, Hidoyat “Go’zal Oyxonni” . Maysara “O’zi qiz bolaga o’xshaydi-yu, Oyxonga xushtor deb kuladi va vasiqa bilan 20 oltinni undirsangiz Oyxon sizniki” deb xayrlashadi. Hidoyat xursandchiligidan “Ostonasida chilla ultiray” deb kuylaydi, ariqni tuynuksidan Oyxonga yana bir qaray deb qaragan paytida Oyxon o’choqni kulini ustiga sepib yuboradi. U aksalar berib, mayli kul sepsangiz ham sevaman, deb qo’shiqni davom etayotgan paytida, uzoqdan Mulla Do’stni ko’rib qolib, tezlik bilan devordan chipta qopni olib yopinib tungakka o’xshab yotib oladi. Mulla Do’st esa uning ustiga chiqib hovliga qaraydi, keyin esa “bu it “ deb tepadi. Hidoyat og’riqqa chidamay, o’zini oshkor qiladi. Mulla Do’st uning ustidan “bu yo baliq, yo mahluq” deb kuladi va Hidoyat qochib ketadi. Qarilik chog’ida bo’lsa ham uylanish orzusida yurgan Mulla do’st, Maysaraning eshigini oldiga yaqinlashib, “Kel dilrabo xushtoringman” qo’shig’ini kuylaydi. Mazkur band (kupletli) qo’shiqda uning soddaligi, hazilkash hajviy – qistirmali qochirma gaplarga chechanligi rechitativ va musiqa sadolarda, mukammal ravishda, boshqa musiqa partiyalarida ham namoyon bo’ladi. Maysaraga ishq tushgan Mulla do’st, xursandchilik bilan eshikni taqillatib, Qozi sizni huzuriga chaqiradi deb xatni berib ketadi. Mazkur qo’shiqni melodik intonatsiyasida o’zbek xalq hajviy “Bilakuzuk” va xorazmcha “Jononim” kabi laparning o’xshashligi bor. Maysara yakka o’zi hovlida “re minor’ tonalligida yozilgan katta ariyada ko’ngli o’ksigan holatda beva qolganini eslab “Baxtim ochilmadi, dunyo menga






qorong'u, shodlik qo'shiq menga nasib etmadi, yonimda erim yo'q, mayli menga ham baxt ato qilar" deb qayg'urib kuylaydi. Maysaraning mazkur o'zbek xalq ashula uslubida yozilgan katta ariyasi, 26 taktli kirish orkestr sadosi bilan boshlanadi, temp harakati Allegro con brio – dan Moderato, dan 6/8 larga o'tib ariya rivojlanadi va birinchi pardani finalga olib keladi. Operaning birinchi pardasi final qismi Allegro con spirit(G-dur) juda tez harakatli marshsimon musiqa sodolari bilan boshlanadi va shu tempo – ritm finalni oxiriga qadar saqlanadi. Maysara, Mulla Do'st, Hoji darg'alar bilan sahnada sodir bo'layotgan voqeda ikkita ommaviy xor ishtirok etadi. Tez harakat musiqa sadosi fonida hayajonlangan Mulla Do'stga bozorga borib Cho'pon aliga xabar berishni iltimos qiladi. Maysara o'zi suppada namoz ibodatini bajo qilib turadi. Hoji darg'a boshliq mirshablar grotest bilan xor aytib , hovliga atrof – tarafdin bostirib kiradi. Ular Oyxon bilan Cho'pon Alini izlaydilar, topolmaydilar deb aytishadi. Mana ko'rib turubmizki "Maysaraning ishi" hajviy operasining tahlili shuni ko'rsatadiki, operani adabiy mazmuniga kiritilgan barcha qahramonlar xarakterlariga xos musiqiy til – iboralari, garmonik – polifonik vositalar bilan boyitib va shakl – janrlarini kompazitor aniq va mohirlik bilan qo'llagani musiqiy daraturgiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Musiqiy dramaturgiyasining rivojlanish jarayonida yakka ovoz, ariya, qo'shiq, laparlar bilan ommaviy xor, ayniqsa vokal – ansambllar: duet, tertset, kvartet va kvintetlar muhim ro'l o'ynaydi.

Kompazitor Sulaymon Yudakov operada o'zbek xalq musiqasidan iqtibos, kiritmay faqat kuy – ohangi va usul doirasi bilan cheklanadi. Ya'ni xalq qo'shiq, ashula, yalla, lapar kabi lanrlarning xususiyatlaridan, mukammal ravishda foydalangan. Kuylarni obrazli tuzilmasi tiniq oddiy va ta'sirchan ohanglarni zamini asosan major yoki minor ladlar, garmonik funksiyalari soda akkordlar bilan boyitilgan. Shular sababli opera xalqchiligi, asl hajviyligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va tomashabinni juda ham qiziqtirib, Maysaraxonning aql – zakovatli ishi girdobiga olib kiradi. Asar tomashabinlarga juda manzur keldi.[1]

O'zbekistonda Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda Opera san'ati va baxshichilik san'atiga juda katta e'tibor qaratildi.O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bergan nutqlarida Opera va baxshichilik maktab internati ushbu an'anani davom ettirish yosh avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Mazkur ixtisoslashtirilgan ta'lim maskani shu oyda ishga tushurildi. Muassasa 150o'ringa mo'ljallangan bo'lib, unga 9 sinfni bitirgan o'quvchi yoshlar tanlov asosida qabul qilinadi. Hozirda 30 nafar o'g'il – qiz o'qishni boshladi.[3]





Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A. Jabbarov, S.Begmatov, M.Azamova “O‘zbek musiqasi tarixi” Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent - 2018.
- 2.O‘zbekiston San’ati (1991 – 2001) yillar. “Sharq nashiryoti”, Toshkent – 2001.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal (2001 – 2023) UZINFOCOM.

